

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

AYZEK AZIMOVNING IJOD YO'LI VA UNING BA'ZI HIKOYALARINING MAZMUN-MOHİYATI XUSUSIDA

Sayfullayeva Shaxrizoda

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi

Hammualiflar: Adiba G'oyibnazarova, O'sarova Laylo

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Ayzek Azimovning hayot va ijod yo'li hamda uning o'ziga xos fantastik yo'nalishdagi hikoyalari, ularning mazmun-mohiyati va janr xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fantast, kosmos, “janr Shekspiri”, qisqa hikoyalar, robot “o'qituvchi”, gallaktika, maktab, fazo kemalari, tadqiqot.

XX asrning eng buyuk fantast yozuvchilaridan biri hisoblanmish Ayzek Azimov AQSHga oilaviy migrant sifatida borib qoladi. Azimov ilmiy fantastika olamini “ag'dar-to'ntar” qilib yubordi. U yozgan kitob hatto Tesla bilan birga kosmosga uchirildi. Ilmiy-ommabop va fantastik asarlar yozuvchilari orasida eng mashhuri va ta'bir joiz bo'lsa, “janr Shekspiri” hisoblangan Azimov 1920-yilning 2-yanvar kuni Sovet Ittifoqi tarkibidagi Smolensk guberniyasida dunyoga keladi. Ota-onasi — Anna-Raxil Isaakovna Berman va Yuda Aranovich Azimov tegirmonchilik bilan shug'ullanardi. Is'hoqning otasi **bolsheviklar inqilobidan keyin o'z oilasi hayoti** qanday kechishini tasavvur qilib, Amerika farzandlarining ta'limi va hayoti uchun yaxshi maskan degan qarorga keladi. AQSHga ko'chib o'tgan Is'hoq Ayzekka aylanadi. 12 yoshga to'lgan Ayzek Azimov hikoya yozishga qiziqib qoladi va qoralamalarini do'stlariga o'qib beradi. Azimov hayotda juda qat'iyatli va o'ziga ishongan edi. Bo'lajak yozuvchi dastlabki **oltita hikoyasiga rad javobini oladi**. Ammo u ishlashni davom ettiradi va oradan to'rt oy o'tgach, birinchi hikoyasini sotadi. Keyin esa yana ikkitasi sotiladi — ular orasida Jon Kempbellning “Hayratlanarli ilmiy fantastika”siga yo'l ochgan qoralama ham bor edi.^[1]

Quyida biz yozuvchining hikoyalari va ularda ilgari surilgan g'oyalar haqida so'z yuritamiz. Yozuvchining kitobxonlar orasida mashhur bo'lgan kichik hikoyalardan biri “O'qituvchi odam bo'lgan ekan” hikoyasi o'zining mazmun-mohiyati jihatidan e'tiborlidir. Mazkur hikoya voqealari kelajak 2155-yilda bo'lib o'tadi. Qahramonlari aka-singil Mari va Tommi. Hikoyaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Tommi ismli bolakay bir kuni tomdan bir kitobni topib oladi. Bu o'sha davr uchun bu juda noyob, tarixiy voqea edi. Buni Mari o'zining xotira daftarchasiga yozib qo'yadi. Aka-singil qog'oz kitoblar haqida bobosidan, bobosi ham bobosidan eshitgan edi. Kitobda maktab haqida yozilgan edi. Unda bolalar “maktab” degan joyda bir xilda saboq olishar, o'qituvchi ham robot emas odam edi. Mari qadim davr maktablari haqida xayol surar ekan, ularga havas qiladi.

Hikoya voqealari yuz bergan vaqtga e'tibor qilsak, ular hozirgi vaqtimizdan yuz yillar keyingi kelajakdagi 2155-yilda ro'y bermoqda. Umuman olganda yozuvchi'quvchini kelajakka sayohat qildiradi Yozuvchi bu davrda texnika va taraqqiyot o'ta rivojlanganiga e'tiborni tortadi: "maktab" deyilgan joy har bir bola uchun o'z uyidan ajratilgan maxsus xona va darsni esa robot "o'qituvchi" o'tadi. U o'quvchiga qat'iy topshiriqlar beradi va berilgan ko'rsatmalar asosida ularni baholaydi. Insoniyat shunchalik ilm-fan va texnika taraqqiyotiga erishadiki, qog'oz kitoblar, odam o'qituvchilar, maktablar ular uchun bamisoli afsonadek tuyuladi: "Tommi singlisiga g'alati qarash qildi va bilag'onlik bilan dedi:

- Bunda biznikiga o'xshagan maktab haqida yozishmagan, tentakvoy! Bu yuzlab yillar oldingi maktab!

Unaqa maktab haqida hech nima bilmasligi Mariga juda alam qildi. U Tommining yelkalari osha kitobga ko'z yugurtirar ekan:

- Nima bo'lganda ham u yerda o'qituvchilar bo'lgan-ku. Ularning nimasini yozish mumkin? - dedi bo'sh kelmay.

- Ha, albatta, u yerda o'qituvchilar bo'lgan. Ammo ular odam bo'lgan!

- Odam?! - Endi Mari chinakamiga hayratda qoldi. - Qanday qilib odam o'qituvchi bo'ladi?

Tommi kulgudan yorilay dedi".^[2] Bolalar faqat elektron kitoblardan foydalanishadi qog'oz kitobning topilishi ular uchun bir mo'jiza edi: "- Buni qara! - dedi Tommi, - esizgina... Bunday kitoblarni o'qib bo'lgach, tashlab yuborgan bo'lishsa kerak. Bizning elektron kutubxonamizda millionlab kitoblar bo'lsa ham, bunisi ulardan ming marta yaxshiroqqa o'xshaydi. Uni qo'lda ushlab, hatto yoningda olib yurishing ham mumkin. Men bunaqa kitoblarni tashlab yubormagan bo'lardim. - Men ham, - dedi Mari kitobni avaylabgina siypalarkan".^[3] Aynan mana shu jumla orqali yozuvchi nima demoqchi? Texnologiyalar takomillashib borayotgan bugungi hayotimizda istaymizmi yo'qmi yosh avlod kompyuter, telefon va boshqa ko'plab sun'iy entellekt vositalariga anchayin bog'lanib qolgan. Davlat hujjatlari, rasmiy ishlar, kitoblar, qo'llanmalar barcha-barchasi elektron tizimga solinmoqda. Buning natijasida avval gavjum bo'lgan kitubxonalar anchayin siyraklashgan, kitoblar javonda chang bo'lib ham qolib ketyapti. Shuni unutmaslik kerakki elektron kitoblar qanchalik qulay bo'lmasin ularning ham o'ziga yarasha insonning sog'ligiga zararlari ham yo'q emas. Qog'oz kitoblar esa necha zamonlar oshsa ham o'z qadr qimmatini yo'qotmaydi. Kitoblarni varaqlab o'qish, ularni yonimizda olib yurish, varoqlarning o'ziga xos hididan bahramand bo'lishga nima yetsin. Yozuvchi har bir narsani qadrlash kerakligiga urg'u beryapti, nazarimda. Buni Tommining qog'oz kitobni siypalab aytgan fikrlari ham tasdiqlaydi. Robotlarning ko'p-ko'p bergan vazifalarini bajarolmay qiynalgan, bir o'zi ekranga qarabgina ta'lim oladigan, robot "o'qituvchi" buzilib qolganida uning qayta tuzalmasligini jon-dilidan xohlagan Mari bizning davrimizdagi gavjum va do'stlarga to'la maktab, mehribon va hamfikir ustozga juda-juda havas qiladi: "Barcha bolalar kulishib, o'ynab-kulib maktab hovlisiga kirib kelishgan, - o'ylardi qizcha havas bilan entikib. - Sinf xonasi degan joyda barchalari birga o'tirishgan, ularga bir xilda saboq berilgan. Kun oxirida barcha o'quvchilar uyga ham birga qaytishgan. Uy vazifalarini birga tayyorlashgan, bir-birlariga ko'maklashishgan, bahslashishgan... O'qituvchilari ham odam bo'lgan ekan. Demak, u bilan bemalol gaplashish, maslahat olish, hatto do'stona suhbatlashish mumkin bo'lgan..."^[4] Bu fikrlar bilan yozuvchi yosh o'quvchilarga ustozlarni qadrlash, hurmat qilish, maktabda do'stlari bilan birga kechayotgan har bir lahzadan bahramand bo'lib, bel bog'lab, ta'lim olishga chaqiradi. Sun'iy entellektga bog'lanib qolishning salbiy holatlarini hikoyalar qahramonlari tilidan keltirib o'tadi. Shuning uchun ham Azimovning hikoyalari bo'lmag'ur, yolg'on fantastika emas, hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan ilmiy-fantastikligi bilan ajralib turadi.

Adibning yana bir teran mazmunli hikoyasi “Ular uchib kelisholmaydi”. Hikoyaning sarlavhasining o’ziyoq ongimizda “ Ular kimlar? Nega uchib kelisha olmaydi?” degan savolni paydo qiladi va e’tiborni tortadi. Ushbu hikoyada samoviy gallaktika vakillari butun gallaktika va planetalarni nazorat qilib turishadi va yuksalib , taraqqiy etib borayotgan bir planeta ularning e’tiborini tortadi. Hikoyada hali gallaktikalar va sayyoralar ketma-ket paydo bo’layotganini ko’rishimiz mumkin. “ Keksa Naron huzuriga kelgan xabarchiga qaradi.

- Naron! - deya xitob qildi xabarchi. - Yagona Buyuk...

- Hoy, mulozamatni kamroq qilaver. Xo’sh, nima gap?

- Yana bir organizmlar guruhi yetuklikka erishdi.

- Yaxshi! Juda yaxshi! Endilikda unaqalar tez yetilyapti, birorta yil yangiliksiz bo’lmayapti o’zi....

- Ha, ha, - dedi Naron. - Men bu olamni bilaman.

U o’zining silliq yozuvi bilan mazkur sayyora nomini katta kitobga yozib, so’ng ikkinchisigayam ko’chirdi. An’anaga ko’ra, muayyan sayyorada yashovchilarning ko’pchiligi uni qanday ataydigan bo’lsa, kitobga ham u o’sha nom bilan yozilardi. Naron shuning uchun yangi sayyorani «Earth» deb yozib qo’ydi.”^[5] Bu jummalarda yangi sayyora “Earth” ya’ni yer deb nom beradi. Bu sayyora qolgan yaratilqlar ichida juda tez tashkil topganini yozuvchi: “ong paydo bo’lganidan to yetuklikkacha bo’lgan yo’lni boshqa hech kim bu qadar tez bosib o’tmagandi” deya kiritib o’tadi. “Yaqin orada ularning fazo kemalari borliqni o’rgana boshlab, Federatsiya bilan muloqotga kirishadilar.

- Gap shundaki, Yagona Buyuk, - xabarchi istamayroq davom ettirdi. - Kuzatuvchilarning xabar berishlaricha, ular haliyam fazoga chiqishmabdi.

Xabarchini gapidan xayron qolgan Naron undan so’raydi: agar ularda termoyadro quvvati mavjud bo’lsa, uning sinov tajribalarini qaerda o’tkazishmoqda?

- O’z sayyoralarida, janobim.

Naron o’ta donishmand edi va Galaktikaning boshqa a’zolari kabi, yuz berishi muqarrar bo’lgan hodisalarni avvaldan ko’ra bilardi.

- Ahmoq eshaklar, - deya ming’irladi u...”^[6] Bu hikoyada yozuvchi insoniyatda mavjud barcha imkoniyatlardan to’g’ri va oqilona foydalana olishi lozimligini ta’kidlab o’tmoqda. Ya’ni yerdagilar , ya’ni biz insonlar o’z ilmimizni yuksaltirishimiz zarurligi, ilm-fan taraqqiyotidan oqilona foydalanishni uqtirish hikoya qahramoni Naronning tilidan keltirib o’tiladi. Yozuvchi agar ilmdan to’g’ri va aniq foydalanishmasa “ular gallaktikaga uchib kelisholmaydi” demoqchi bo’ladi. Hikoyani o’qigan o’quvchi fizika, kimyo, astronomiya kabi fan sohalarini chuqur o’rganishi kerakligini anglab yetadi

Aytek Azimov yozuvchilik faoliyati davomida **u 500 dan ortiq kitob yozdi**, ularning ayrimlari — Azimov tahrirlagan boshqa yozuvchilarning saylanmalaridir, ammo aksariyat qismi Aytekning romanlari, ilmiy-ommabop kitoblari va hikoyalar to’plamlaridir. Azimov XX asr “Uyg’onish davri” odami edi. U Shekspir, Injil haqida, Amerika tarixi, dunyo tarixi, matematika, kimyo tarixi, astronomiya haqida ko’plab kitoblar yozdi. Bunday yo’nalishda birgina kitob yozish uchun ham oddiy inson umrining katta qismini o’qib-o’rganishga sarflaydi. 2018-yilda esa Ilon Maskning SpaceX kompaniyasi **Tesla elektromobilini kosmosga uchirganida**, mashinada Azimov fondi trilogiyasiga kiruvchi kitoblar nusxalari bo’lgan. Aytekning o’zi agarda oilasi bilan AQSHga

ko‘chib o‘tmaganida, Ikkinchi jahon urushi vaqtida sovet askari sifatida o‘lib ketishi mumkinligini aytadi. Buning ustiga, adabiyot davlat va partiya manfaatlariga xizmat qilgan sotsial realizm davrida Azimovning ilmiy-fantastik hikoyalari chop etilishiga SSSRda ruxsat berilishi dargumon edi.^[7]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki inson hayotida ro‘y beradigan har bir voqea uning uchun juda katta xayrlarga sabab bo‘ladi. Agar Ayzekning otasi farzandlari kelajagi uchun Sovet davridagi obro‘si-yu boyligidan voz kechib kelmaganda, uning o‘gli buyuk fantast yozuvchi bo‘lib yetishmas va bu yo‘nalishdagi asarlarda ham katta o‘zgarishlar ro‘y bermagan bo‘lardi, ehtimol. Shu o‘rinda, ilmga qilingan sarmoya – eng katta sarmoyadir, maqoli o‘z tasdig‘ini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Daryo.uz “Ayzek Azimov — robotlar olamini yaratgan kelajak bashoratchisi va OIV qurboniga aylangan yozuvchi taqdiri” maqola – 2024.

2. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ayzek-azimov/>

3. n.ziyouz.com Ayzek Azimov “Ular uchib kelisholmaydi” hikoya, Hamidbek Yusupov tarjimasi "Ma'rifat gulshani" gazetasi – 2013.

4. n.ziyouz.com Ayzek Azimov “O‘qituvchi odam bo‘lgan ekan” hikoya, ingliz tilidan Mahbuba Vahobova tarjimasi. "Ma'rifat gulshani" gazetasi – 2013.